



+120 dan ortiq davlatlar



+20 dan ortiq texnik qo'mitalar



+1200 dan ortiq mutaxassislar



1909 yildan beri

# AVTOMOBIL YO'LLARI VA AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK





# BIZNING MAVZULAR

---

## AVTOMOBIL YO'LLARI VA AVTOMOBIL TRANSPORTI SOHASIGA BOG'LIQ BO'LGAN BARCHA MAVZULAR

XAVFSIZ YO'L HARAKATI

YO'LLARDAN FOYDALANISHNING  
YANGI TURLARI

TRANSPORT SIYOSATI

MOLIYALASHTIRISH

XAVFSIZLIK

TRANSPORT ORGANLARI FAOLIYATI

PIYODALAR  
YO'LAKCHASI

TUNNELLARDAN FOYDALANISH

TEVARAK ATROF

ULANGAN TRANSPORT VOSITALAR

TA'MINLASH VA QO'LLASH  
STRATEGIYASI

YO'L TARMOQLARIDAN FOYDALANISH

YUK TASHISH

TABIY OFATLAR OLDINI  
OLISH VA BARTARAF ETISH

QISH MAVSUMIDA XIZMAT  
KO'RSATISH

BARQARORLIK

KO'PRIKLAR

INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARI

QISHLOQ HUDUDLARIDAGI  
YO'LLAR

YEROSTI ISHLARI

MULTIMODALLIK

YO'L AKTIVLARINI  
BOSHQARISH

SHAHAR HUDUDIDA  
HARAKATCHANLIK

...



**Yo'l transporti** eng qadimgi transport turi hisoblanadi va ko'pchilik mamlakatlarda transport harakatlarining 80%i dan ortig'ini tashkil qiladi. U tobora tashish talabiga ko'ra qo'yiladigan yangi yonashuvlar, jamoatchilik bosimi va mablag'lardan foydalanish samaradorligi kabi qattiq talablarga duchor bo'lmoqda.

Dunyo bo'ylab mutaxassislar, tadqiqotchilar va amaliyotchilar ushbu muammoga eng maqbul yechimni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha ishlamoqdalar.

**Xalqaro hamkorlik** bu jarayonda kuchli vosita sanaladi.

- **Eng yaxshi amaliyotlarni qayta kashf qilish o'rniga mutaxassislar o'rtasidagi uchrashuvlar va hamkorlik orqali tarqatiladi, bu esa o'z navbatida vaqt va pulni tejaydi,**
- **G'oyalarga qarshi fikrlar bildirilishi mumkin, bu yangi yondashuvlarning yaralishiga zamin,**
- **yaratadi va bu hamkorlik ishtirokchilarga milliy amaliyotni targ'ib qilish imkonini beradi.**

**Xalqaro yo'l uyushmasi, PIARC, 1909** yilda yo'lga doir bo'lgan barcha masalalarda hamkorlik qilish bo'yicha tashkil etilgan. Bizning xalqaro uyushmamiz **nosiyosiy va notijoriy** tashkilotdir. U butun dunyo bo'ylab yo'l mutaxassislari tarmog'ini, bu mutaxassislarga birgalikda ishlash usullarini taqdim etadi va ularning tavsiya va hisobotlarini e'lon qiladi. Bularning barchasi yaxlit va barqaror transport shiorida olib boriladi.

Bizning **mahsulot va xizmatlarimiz** keng tarqalgan bo'lib, asosan a'zolimizga kiradigan 120 dan ortiq mamlakat hukumatlarining umid va talablarga qaratilgan.



## BIZNING VAZIFALAR

### AVTOMOBIL YO'LLARI VA AVTOMOBIL TRANSPORTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI TAHLIL VA MUHOKAMA QILISH UCHUN ZAMONAVIY XALQARO FORUMNI TAQDIM ETISH

- Xalqaro yo'l kongressi, 1908 – yildan beri har to'rt yilda bir marta o'tkaziladi – oxirgisi 2019 yilda Abu Dabida (Birlashgan arab amirliklari) o'tkazilgan, keyingisi 2023 -yilda Praga (Chexiya Respublikasi) shahrida bo'lib o'tadi
- Xalqaro qishki yo'l kongressi – oxirgisi 2018 yilda Gdansk (Polsha) shahrida bo'lib o'tgan, - keyingisi 2022 yilda kalgari shahrida bo'lib o'tadi
- 1200 xalqaro ekspertlar
- 20 dan ortiq texnik qo'mitalar va ishchi guruhlar faoliyatida ishtirok
- Ijroiya qo'mitamiz va Kengashimizning ustav bo'yicha yig'ilishlari
- Milliy darajada uchrashuvlar (milliy qo'mitalar)



### ENG YAXSHI TAJRIBALAR BILAN BO'LISHISH VA GLOBAL MA'LUMOTLARGA MAQBUL KIRISHNI TA'MINLASH

- Hisobotlarni bepul nashr etish - oyiga 1 marta
- Har kvartalda uch tilde nashr etiladigan «Routes/Roads» jurnali
- "Tunellar", "Yo'l qoplamasining xususiyatlari" mavzusidagi konferensiyalar
- Qisqa xulosalar (maxsus loyihalar)



## RIVOJLANAYOTGAN VA O'TISH DAVRIDAGI DAVLATLAR MANFAATINI HISOBGA OLIB CHORA KO'RISH

- Bizning ish mavzularimizga kiritilgan talablar
- Xalqaro seminarlar – olti haftada bir marotaba
- Mintaqaviy ishchi guruhlar
- Moliyaviy qo'llab -quvvatlash mexanizmlari



## AVTOMOBIL YO'LLARI VA AVTOMOBIL TRANSPORTI BORASIDA QAROR QABUL QILISHGA YORDAM BERADIGAN SAMARALI VOSITALARNI ISHLAB CHIQISH VA RAG'BATLANTIRISH

- Bizning onlayn ko'p tilli lug'atimiz
- HDM-4: yo'llarni ta'minlash siyosati va investitsiyalarni tahlil qilish uchun dasturiy ta'minot
- DG-QRAM: tunnellarda xavfli yuklarni tashishni boshqarish vositasi
- Mavzuga doir onlayn qo'llanmalar: yo'l harakati xavfsizligi, tunneldagi ishlar, yo'l aktivlarini boshqarish, tarmoq ishlari/intellektual tashishlar







## BIZ QANDAY ISHLAYMIZ?



**Texnik qo'mitalar va ishchi guruhlar** PIARC ning eng ko'zga ko'rinadigan elementlaridir.

Ular dunyo bo'ylab 1200 dan ortiq mutaxassislarni birlashtiradi, qaysiki PIARCni jahondagi yo'l xo'jaligi bo'yicha eng ko'p mutaxassislarni birlashtirgan tashkilot sifatida gavdalandiradi. Ularning ishi past yoki o'rta daromadli mamlakatlarda har yili o'tkaziladigan ikkita uchrashuv va seminarlar atrofida bo'lib, ular ustuvor texnik mavzular bo'yicha hisobotlar chop etish bilan yakunlanadi.

Mahsulotlarimizning asosiy qismi ingliz, fransuz va ispan tillarida, ya'ni PIARCning uchta ishchi tilida mavjud bo'lib, ba'zida boshqa tillarda ham ishlab chiqariladi.



## HAMKORLIK MUNOSABATLARI

**PIARC** yo'llarni transport tizimining asosiy komponenti sifatida joylashtirish, mahsulotlarimizning keng tarqalishini ta'minlash, eng yaxshi tajribani almashish, yo'l jamoalariga kengroq kirish imkoniyatini berish, harakatlar rejalarini muvofiqlashtirish va qo'shma loyihalarni ishlab chiqish maqsadida hamkorlikni faol ravishda davom ettirmoqda.

**PIARC ning milliy qo'mitalari:** 40 dan ortiq mamlakatlarda milliy darajada tashkil etilgan milliy yo'l uyushmalari.

**Mintaqaviy yo'l uyushmalari:** CEDR Yevropada, AGEPAR fransuz tilida gapiruvchi mamlakatlarda, REAAA Osiyoda va DIRCAIBEA Lotin Amerikasida.

**Taraqqiyot tashkilotlari,** shu bilan birga Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Lotin Amerikasi taraqqiyot banki va h.k.

**Xalqaro texnik tashkilotlar:** TRB (AQSH), Tunnel qurish va yer osti bo'shlig'i bo'yicha xalqaro assotsatsiya (ITA-AITES), FISITA va boshqalar.

# NIMA UCHUN PIARC GA QO'SHILISH KERAK ?

...DA ISHTIROK ETISH

- Bizning hodisalarda
- Yo'l bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlik
- Texnik qo'mitalar va ishchi guruhlar
- Yo'l muammolarini aniqlash

KIRISH

- Bizning «Routes/Roads» nomli jurnalimiz
- Bizning onlayn hisobotlar kutubxonamiz
- Bizning onlayn yo'l lug'atimiz
- Bizning dasturiy mahsulotlarimiz

**Biz a'zolikning bir necha turini taklif etamiz: davlatlar hukumati, mintaqaviy hokimiyat organlari, kompaniya va universitetlar, yakka ishtirokchilar.**

## PIARC JAMOASI

**Kengash**

**Assotsiatsiyani boshqarish uchun javobgarlik**

U a'zo davlatlar delegatsiyalaridan iborat bo'lib, ularning har birini birinchi delegat boshqaradi

**Prezident**

**Kengash tomonidan saylanadi**

4 yillik muddatga

**Ijroiya qo'mitasi**

**Assotsiatsiyani boshqaradi**

Bir necha komissiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi

**PIARC Bosh kotibiyati**

**Barcha faoliyatni muvofiqlashtiradi**

Fransiyaning Parij shahrida joylashgan

Ba'zi a'zo davlatlar tomonidan taqdim etilgan rahbarlar va ekspertlar

Xodimlar

# www.piarc.org

- Bizning nashrlarimizni yuklab oling



- Bizga ijtimoiy tarmoqlarda qo'shiling



- Bizning elektron axborot jurnalimizga obuna bo'ling

